

**BADIIY TARJIMA KONSEPSIYASI VA UNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI**

Kamola Aripova Yusupovna

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

O'zbek va xorijiy tillar kafedrasi katta o'qituvchisi

+998 90 981-46-15 e-mail: kamolakind@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola publitsistik va badiiy matnlarni tarjima qilishning o'ziga xos murakkab jihatlarini tahlil qiladi. Publitsistik matnlarning qat'iy yozilish qolipiga ega emasligi va unda turli uslub elementlarining qo'llanilishi tarjima jarayonida moslashuvchanlikni talab etadi. Badiiy matnlar esa, aksincha, to'liq stilistik vositalar va ko'chma ma'noli birliklar asosida qurilganligi sababli, ularni tarjima qilish alohida mahorat, vaqt va mehnatni talab etadi. Maqolada badiiy tarjima ko'pincha tarjimashunoslikning eng murakkab sohasi sifatida e'tirof etilishining sabablari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Tarjima, publitsistik matnlar, badiiy matnlar, tarjima uslublari, stilistik vositalar, murakkablik, tarjimon mahorati.

Publitsistik matnlarni tarjima qilishning murakkab jihatlaridan biri shuki, bunday matnlarning qat'iy bir yozilish qolipi bo'lmaydi. Garchi publitsistik matnlarda ko'p qo'llanuvchi so'zlar, ibora va jumalarni o'rganish tarjima jarayonida qo'l kelsa-da, ko'p hollarda bunday matnlarda uslub talabiga mos kelmaydigan jumlar ham uchraydiki, ularni tarjima qilish uchun tarjima uslublari o'rtasida ham almashtirishlar talab etiladi. Publitsistik matnlarda boshqa uslublarga oid matnlar(rasmiy, ilmiy, badiiy)ning qo'llanishi kasb talabi tufayli kelib chiqadi, deb o'ylaymiz. Biroq tarjimani qiyinlashtiruvchi bunday holatlar publitsistik usulda har doim ham uchrayvermaydi. Badiiy matnlarda esa jumlar boshdan oyoq tasviriy ifodalar, stilistik vositalar asosiga quriladi, ko'chma ma'noli til birliklari badiiy matnlarning asosini tashkil qiladi. Ularni tarjima qilish uchun esa, boshqa

matn turlari tarjimasida qo'llangan adekvat tarjima usuli yetarli bo'lmaydi. Matndagi badiiy unsurlar, ularning konnotativ ma'nolarini tarjimada to'g'ri ifodalab berish uchun tarjimon katta mahorat egasi bo'lishi, ko'p vaqt va mehnatni ayamasi kerak. Badiiy uslub o'zining tarjima jarayonini qiyinlashtiruvchi bu kabi murakkab komponentlari sababli ko'pincha tarjimashunoslikning eng qiyin sohasi, deb ta'kidlanadi.

Badiiy uslub deganda, biror voqea-hodisani ekspressiv vositalar, tasviriy ifodalar orqali tinglovchiga estetik jihatdan ta'sir o'tkazadigan tarzda yetkazib beruvchi nutq uslubi tushuniladi. Tilning kommunikativ vazifasini uning estetik vazifasi bilan uyg'unlashtirish badiiy uslubning o'ziga xos jihati sanaladi. Badiiy uslub, boshqa nutq uslublaridan farqli o'laroq, tilning ma'lum sohasi, qatlamidagi birliklar bilan chegaralanmaydi. Juda katta til materialini qamrab olish xususiyatiga ega bo'lgan badiiy uslubda umumxalq tilida iste'molda bo'lgan barcha leksik birliklar ishlatilaveradi, hatto boshqa vazifaviy uslublar - ilmiy, rasmiy, so'zlashuv uslubiga oid komponentlarni ham badiiy uslubda istagancha qo'llash mumkin. Badiiy uslubni bu jihatdan barcha nutq uslublarini qamrab olgan, ulardan keng foydalana oladigan erkin uslub, deyishimiz ham mumkin. Yana shunisi e'tiborliki, adabiy tilda shevaga oid so'zlar(dialektizmlar), jargon va argolar, varvarizmlardan foydalanish mumkin emas, biroq badiiy uslubda bunday birliklarni o'rinli tarzda qo'llash mumkin.

Badiiy matnlarda so'z tanlash, ma'lum doiradagi leksik birliklarni ishlatishga qat'iy talablar qo'yilmaydi. Shuningdek, badiiy uslubda tuzilgan matnning lug'at tarkibi, unda qo'llangan gaplarning sintaktik shakllari ham turlicha bo'lishi mumkin. Nutq uslubining boshqa turlari, asosan, ijtimoiy hayotning biror sohasiga ixtisoslashib qolgan bo'ladi, o'ziga belgilangan vazifadan chetga chiqolmaydi. Shuning uchun badiiy uslubdan tashqari, qolgan barcha uslublarni "vazifaviy" deb ta'riflash ham to'g'ri bo'ladi. Badiiy uslub esa, inson hayotining hamma vaziyatlarini matnda aks ettirish xususiyatiga ega. Shuning uchun badiiy uslubda qolgan barcha uslublarning elementlari aks etaveradi.

Badiiy asarni yaratish jarayonida ijodkor o'z qahramonlarining xarakter

xususiyatlarini ochib berishda tilning barcha imkoniyatlarini ishga solishi, leksik-sintaktik, frazeologik vositalardan keng ko'lamda foydalanishi mumkin. Matnning kitobxonga estetik ta'sir darajasini oshirish uchun turli stilistik vositalar, tasviriy ifodalarni qo'llash, jonli, obrazli manzara tasvirini yaratishga intilish badiiy uslubga xos komponentlardan sanaladi.

Badiiy uslubda tilning mavjud imkoniyatlaridan foydalanish haqida aytib o'tdik. Bu uslubning yana bir xususiyati shuki, yozuvchi yoki shoir o'zi yaratayotgan asarning badiiylik darajasi, estetik ta'sir kuchini oshirish uchun tilda avvaldan mavjud bo'lmagan yangi birliklarni, so'z va iboralarni ijod qilishlari ham mumkin. Bu holat ham badiiy uslubning keng qamrovli ekani, tilning imkoniyatlaridan erkin foydalanish, leksik-stilistik jihatdan boy bo'lgan matnlarni yaratish uchun qulay ekanligini isbotlaydi. Badiiy uslubda farqlanuvchi yagona jihat - bu uslubda yaratilgan matnlarning janrlarga ko'ra farqlanishidir. Qaysi janrdagi asarni yaratayotganiga qarab ijodkor voqelikni idrok etishdagi yondashuvini belgilaydi, ifoda tilini tanlab, muallif sifatida o'zining shaxsiy uslubini qay darajada matnga singdirish kerakligi haqida qaror qiladi.

Badiiy uslubni o'rganish jarayonida badiiy adabiyot va uning turlari haqida ham to'xtalib o'tishga majburmiz. I. Sultonov o'zining "Adabiyot nazariyasi" asarida adabiyot tushunchasiga, badiiy matnlarga ta'rif berib, ularni turlarga ajratadi¹. Adabiyotshunoslikka oid manbalarda badiiy matnning lirik, epik va dramatik turlari farqlanadi. Adabiyotga oid manbalarni tasniflashda eng katta guruh adabiy tur hisoblansa, bu turning ichki bo'limlari adabiy shakl deb ataladi. Adabiy shakllar ham o'z navbatida adabiy janrlar, ular esa ichki janr turlariga ajraladi. Misol tariqasida roman janrini oladigan bo'lsak, u epik turga mansub bo'lib, yirik ijodiy ish shakllariga kiradi. Ayni paytda, roman janrining ichki turlari sifatida tarixiy, harbiy, zamonaviy, ijtimoiy-falsafiy, sarguzasht va fantastik romanlar ajratiladi. Ushbu roman turlaridan tarixiy-inqilobiy asar hisoblanmish "Kecha va kunduz" romani o'zbek xalqining yaqin o'tmishi, bu davrdagi ijtimoiy-siyosiy muhit, xalqimiz taqdiridan hikoya qiladi.

¹ И. Султонов. Адабиёт назарияси, Тошкент. : «Шарк», 2006.
www.tadqiqotlar.uz

Ronald Karter hamda Uolter Nash badiiy unsurlarning tilda aks etishi, badiiylik haqida ushbu qarashlarni yoqlab chiqdilar:

1) har qanday badiiy matnda uning badiiyligini aniqlashga yordam beruvchi unsurlar bo'ladi;

2) bunday badiiy unsur va belgilarda konnotativ ma'no mujassamlashgani uchun ularni aniqlash oson kechmaydi. Matnning badiiyligini aks ettiruvchi belgilarni topishda ularning qo'shimcha konnotativ ma'nolari, stilistik bo'yoqdorlik xususiyatlarini batafsil ko'rib chiqish kerak bo'ladi;

3) badiiy matn tili bir qancha til sathlarini o'z ichiga oladi. Shu tufayli uni o'rganish jarayonida ham bir nechta til sathining komponentlari bilan ishlashga to'g'ri keladi;

4) matnning badiiylik bo'yog'ini hosil qilish uchun leksik-semantik, stilistik vositalarning o'zi yetarli bo'lmaydi, balki voqelikning bir nechta til sathlarida qo'llanib, o'zaro uyg'unlik hosil qilishi badiiy matnning yaralishiga asos bo'ladi;

badiiy uslubning asosiy belgilari deb sanalgan xususiyatlarni faqat badiiy matnlarda uchratish mumkin, deyish noto'g'ri. Badiiylik unsurlari, oz miqdorda bo'lsa-da, boshqa turdagi matnlar tarkibida ham kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aripova K.Yu., The expression of national and cultural units in the English translation of Cho'lpon's novel "Night and day"(Based on Christopher Fort's Translation) The Use of Lexical-Stylistic Devices, Metaphor // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.Toshkent, (E)ISSN: 2181-1784 5(2), Feb., 2025 - B.190-202
2. Aripova K.Yu. Concept- Fundamental notions of cognitive linguistics//So'z san'ati xalqaro jurnali. – 2020. – T. 2. – №. 2. - B.68-73
3. Aripova K.Yu. The distinctive features of translation of the novel "Day and Night"// So'z san'ati xalqaro jurnali. – 2021. – T. 4. – №. 1. - B.179-183.
4. Aripova K.Yu. Linguistic units representing national color//Journal of advanced scientific research. November, 2023 - B.11-14

5. Baker, Mona. *In Other Words: A Coursebook on Translation*. Routledge, 1992.
6. Hatim, Basil, and Ian Mason. *Discourse and the Translator*. Longman, 1990.
7. Leech, Geoffrey N., and Michael H. Short. *Style in Fiction: A Linguistic Introduction to English Fictional Prose*. Longman, 1981.
8. Nida, Eugene A., and Charles R. Taber. *The Theory and Practice of Translation*. E.J. Brill, 1969.
9. Vinay, Jean-Paul, and Jean Darbelnet. *Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation*. Translated by Juan C. Sager and M.J. Hamel, John Benjamins Publishing Company, 1995.